**Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yildagi faoliyati to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan **2024-yilda** korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat byudjeti mablag‘larining samarali sarf etilishini nazorat qilish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, xalqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishlarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

**Tashkiliy–huquqiy asoslarni takomillashtirish sohasida**

2024 yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **8 ta** normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan:

**–** O‘zbekiston Respublikasining **“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”**gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi;

**– O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘shimchalar kiritilib,** qonun bilan sport sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi;

**–** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** qarori qabul qilindi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha 2024 yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi;

**–** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi qarori qabul qilinib, «Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi» elektron platformasini ishga tushirish belgilandi;

**–** Vazirlar Mahkamasining **“2024 yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi qarori qabul qilinib, fuqarolik, oila, axborot va axborotlashtirish, ta’lim, fan va madaniyat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish rejalari tasdiqlandi;

**–** Vazirlar Mahkamasining **“Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi**;

**– «Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi» elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi;**

**– Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllari tasdiqlandi.**

## Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bilan bog‘liq tahliliy faoliyat

Davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida **korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillar** aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rildi.

Jumladan:

**Davlat xaridlari sohasida** xaridlar hajmini qismlarga bo‘lish orqali amalga oshirilganligi, tender savdolarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi;

**Sog‘liqni saqlash sohasida** ishga qabul qilishda shaffof tizim yaratilmaganligi, tibbiyot muassasalarida byudjet mablag‘larining talon-toroj qilinayotganligi;

**Madaniyat sohasida** milliy seriallarni yaratish uchun telekanallarga subsidiya berishning aniq tartib-taomillarning belgilanmaganligi;

**Huquqni muhofaza qiluvchi organlar**da jinoyat ishining surishtiruv va tergov jarayonida hamda ehtiyot chorasini tanlash jarayonida yengillik qilish evaziga ta’magirlik holatlari sodir etilayotganligi;

**Qurilish sohasida** inson omilini imkon qadar istisno etadigan raqamlashtirish ishlari sust olib borilayotganligi, qurilish obyektlarida nazoratning yetarli darajada emasligi;

**Ilmiy daraja** olishda plagiatga yo‘l qo‘yish, tanish-bilishchilik munosabatlaridan foydalanish tizimida raqamlashtirish, nazorat va javobgarlik mexanizmlarining yaratilmaganligi;

**Avtomobil yo‘llari sohasida** davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanib, ularni minimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

## Murojaatlar bilan ishlash yo‘nalishida

Agentlikka **2024 yil davomida** jami **4 176 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga, viloyat maxalliy hokimliklarga **55 ta so‘rovnoma** yuborilgan, qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan **41 ta taqdimnoma** kiritilgan, **7 nafar** shaxs **intizomiy javobgarlikka** tortilgan, shundan **1 nafari** bilan **mehnat shartnomasi bekor qilingan, 19 ta** qabul qilingan qarorlar bekor qilingan, **6 ta jinoyat ishi, 10 ta ma’muriy ish** qo‘zg‘atilgan va mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilgan.

## Agentlik tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar

Manfaatlar to‘qnashuvi, davlat xaridlari, davlat organlarining ochiqligi hamda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish bo‘yicha hududlar va sohalar kesimida o‘rganishlar o‘tkazilib, aniqlangan qonunbuzilishilarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik va idoralarga **408 ta taqdimnoma** kiritildi.

Taqdimnomalar natijasida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan **85 nafar** shaxsga nisbatan **intizomiy** javobgarlik choralari qo‘llanildi, **234 ta** holatda jami **263,9 mlrd.** so‘mlik xaridlar bekor qilinib, noqonuniy davlat xaridlari o‘tkazilishining oldi olindi.

Bundan tashqari, o‘rganishlar natijasida aniqlangan qonunbuzilishi holatlariga huquqiy baho berish uchun **293 ta** materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilib, ular asosida Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan umumiy **28 ta jinoyat ishi** va **104 ta ma’muriy ish qo‘zg‘atildi.**

O‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida **jami 222,7 mlrd** so‘mlik **moddiy zararning** davlat byudjetiga qaytarilishi yuzasidan qarorlar qabul qilingan.

Ommaviy axborot vositalarida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilayotganligi yuzasidan e’lon qilingan **55 ta** xabarlar o‘rganilib, ularning **25 tasi** bo‘yicha davlat xaridlarida qonunbuzilishi holatlarining mavjudligi hamda **5 tasida** davlat xizmatchilari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgani aniqlandi va qonunbuzilishi holatlari bartaraf etildi.

## Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimining joriy qilish yo‘nalishida

Davlat idoralari va tashkilotlarida korrupsiyaga **qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat** (“komplayens – nazorat”) tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar izchil davom ettirildi.

Davlat idoralari va tashkilotlarida korrupsiyaga **qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat** tuzilmalari faoliyati takomillashtirilib, **74 ta** davlat idorasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi» bo‘yicha ISO xalqaro standart sertifikatiga ega bo‘ldi.

Korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda **852 nafar** ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining malakasi oshirildi.

**23 ta** davlat organlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari **ochiq tanlov** asosida ishga qabul qilindi.

**123 ta** davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari tashkil etildi.

Davlat idoralarining funksiyalaridagi **korrupsiya xavf-xatarlar darajasi** baholashdan o‘tkazilib, **101 ta** davlat organlari va tashkilotlarining **7 525 ta** funksiyalaridan **495 tasi** korrupsiya xavf-xatar

darajasi“yuqori”, **1 541 tasi** “o‘rta”, **5 489 tasi** “past” baholandi va **Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri** shakllantirildi.

**Korrupsiya** darajasi yuqori bo‘lgan **495 ta** funksiyalarning **172** tasida raqamlashtirish, **67** tasida amaldagi ichki idoraviy hujjatlarni takomillashtirish yoki yangisini qabul qilish orqali, **62** tasida qo‘shimcha nazorat mexanizmlarini joriy qilish, **42** tasida ochiqlikni ta’minlash, **152** tasida xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish orqali minimallashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi **reyting baholanib, 95** ta tashkilotning *42 tasi “yaxshi”, 38 tasi “qoniqarli” va 15 tasi “qoniqarsiz”* deb topildi.

**“Qoniqarsiz”** baholangan rahbarlarining hisobotlari eshitilib, tanqidiy muhokama qilindi.

## Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash yo‘nalishida

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi monitoring qilinib, aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha ta’sir choralari qo‘llanildi. Xususan, **103 ta** davlat organlari va tashkilotlarining ochiqligi monitoring qilinib, natijalari bo‘yicha **45 ta** taqdimnoma kiritildi.

Ochiqlikka oid qonun hujjatlari talablarini buzgan **5 nafar** mansabdor shaxsga nisbatan **ma’muriy javobgarlik choralari qo‘llanildi.**

Shuningdek, **“Qayta aloqaning sirli mijozi”** tadbirlari orqali **6 ta** vazirlik *(Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Qishloq xo‘jaligi, Transport, Energetika va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklari)* va **2 ta** viloyat hokimliklari (*Andijon va Namangan)*ga **taqdimnomalar** kiritildi.

Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlashga mas’ul xodimlarni o‘qitish bo‘yicha **“E-learning” elektron platformasi** ishga tushirilib, **119 ta** davlat organlarining **588 nafar** mas’ul xodimi o‘qitildi.

Davlat idoralari faoliyati ochiqligi darajasini baholashga qaratilgan **Ochiqlik indeksi** shakllantirilib, uning doirasida **103 ta** davlat organlarining **31 ta**si “yashil”, **43 ta**si “sariq” va **29 ta**si “qizil” baholandi hamda bu tizim orqali barcha darajadagi rahbar xodimlarning ochiqlikni ta’minlash sohasidagi mas’uliyati oshirildi.

**Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan** amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi jarayonida ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash ustidan doimiy nazorat o‘rnatildi.

Xususan, Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan **815 mln** dollarlik **3 ta** loyiha bo‘yicha mahallalarda **“Tashabbuskor guruhlar”**

tashkil etilib, ajratilgan mablag‘larni mahalla faollari bilan maslahatlashgan holda sarflash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

## Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish

O‘zbekiston Respublikasining **“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”**gi Qonuni hamda Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha **respublika idoralararo komissiyasi** faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlari **ro‘yxati tasdiqlandi.**

*Ro‘yxatga 27 ta respublika darajasidagi davlat organi va tashkiloti, 71 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organi, 10 ta davlat maqsadli jamg‘armasi, viloyatlar va tuman-shahar hokimliklari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan 49 ta xo‘jalik jamiyatlari, unitar korxonalari kiritildi.*

Davlat xizmatida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, ularni bartaraf etish choralari bo‘yicha **uslubiy qo‘llanma** ishlab chiqildi.

Qonun kuchga kirgunga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog‘liq masalalar davlat organlari va tashkilotlarida ishchi guruhlar tuzgan holda o‘rganildi.

*O‘rganishlarda **182 nafar** mansabdor shaxsning yaqin qarindoshlari bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat ostida ishlayotganligi, **1 513 nafar** xodimning davlat xizmati bilan bir vaqtda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganligi bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanib, bartaraf etildi.*

*Davlat idoralari va tashkilotlarning **95 600 nafardan** ortiq xodimi test sinovlarini topshirdi, **85 581 nafar** xodimi o‘qitildi.*

**«E-anticor.uz»** elektron platformasida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarni **aniqlash va onlayn monitoring** qilish imkonini beruvchi elektron modul ishga tushirildi.

## Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

**Agentlik tomonidan 327 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilib, natijalariga ko‘ra **327 ta** loyihaning **71 foizida** yoki 233 tasida **676 ta** korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar aniqlandi va ularni bartaraf etish choralari ko‘rildi.

## NNT va Jamoatchilik bilan ishlash yo‘nalishida

Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani, Jizzax viloyatining Jizzax shahri, Buxoro viloyatining Vobkent tumanida **“Shaffof shaharlar”, “Halol tumanlar”** loyihasi ishga tushirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish bo‘yicha **10 dan ortiq** seminar-trening tadbirlari NNTlar uchun **2 ta grant** loyihalariga tanlov e’lon qilindi.

Agentlik tomonidan nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda “**Aksilkorrupsiya laboratoriyasi”** loyihasi doirasida “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimini baholashda nohalollik va korrupsiya omillari”, “Akusherlik xizmatlarini ko‘rsatishda nohalollik va korrupsiya xavflari”, “Maktabga qabul qilishda korrupsiya xavfini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalarning bajarilishini monitoring qilish” hamda “Ipoteka krediti uchun subsidiya ajratish jarayonida korrupsiya xavflari” mavzularida tadqiqotlar o‘tkazildi.

Aholini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha islohotlar haqida xabardor qilish maqsadida mahalliy va xorijiy OAV, ijtimoiy tarmoqlarda **1 600 dan** ortiq materiallar e’lon qilindi, matbuot anjumani va brifinglar o‘tkazildi.

## Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida

2024-yilda xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlikka oid jami **5 ta** hujjat, shundan **3 ta** memorandum, **1 ta** chora-tadbirlar rejasi va **1 ta** strategik hamkorlik bitimi imzolandi.

Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida **Oliy Majlis palatalarining vakillari** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Parlamentariylar Global tashkiloti a’zoligiga a’zo bo‘ldi.

Toshkent shahrida ilk marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **Media forum** bo‘lib o‘tdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkorlik qilish va tajriba almashish tizimini yaratish maqsadida **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Toshkent shahrida Markaziy Osiyo Mintaqaviy platformasi** ishga tushirildi.

Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatni shakllantirish maqsadida BMTning korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (**GRACE**) dasturini O‘zbekistonda keng joriy etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

2024-yilda xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlikka oid **4 ta hamkorlik to‘g‘risida bitim va Memorandum** imzolandi.

Xalqaro hamkorlar bilan **55 ta** rasmiy uchrashuv o‘tkazilib, xalqaro ekspertlar ishtirokida **12 ta** seminar trening hamda **3 ta** xalqaro Forum tashkil etildi.

**2024**-yilda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda **4** ta qo‘shma loyiha ishga tushirildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

IHTTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘i Istanbul harakatlar rejasi doirasida 5-bosqich monitoringi o‘tkazildi va O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosati **83.6 ball** bilan Markaziy Osiyo davlatlari orasida **eng yuqori baholandi.**

## Xalqaro reyting va indekslardagi natijalar

Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida 2020-yil O‘zbekiston 180 ta davlat orasida *(26 ball)* 146-o‘rinni, 2021-yilda *(28 ball)* 140-o‘rinni, 2022-yilda *(31 ball)* 126-o‘rinni, 2023-yil yakunlari bo‘yicha *(33 ball)* 121-o‘rinni, 2024-yilda esa *(32 ball)* 121-o‘rinni egalladi.